

PEDAGOGLAR TOMONIDAN TARBIYAVIY MUHITNI SHAKLLANTIRISH

Bohodirova Farida Azamat qizi*Urganch Ranch texnologiya universiteti magistranti*faridabahadirova2000@gmail.com

+998(99) 965-39-74

Annotatsiya: *ushbu maqolada pedagogning asosiy vazifalari, pedagoglarning o‘zini o‘zi rivojlantirishi va bu orqali o‘quvchilar bilan ishlash jarayonida tarbiyaviy muhitni shakllantirishi haqida batafsil to‘xtab o‘tilgan. Shuningdek, zamonaviy pedagog tushunchasining ahamiyati to‘g‘risida yoritilgan.*

Аннотация: *В данной статье подробно рассматриваются основные задачи учителя, самосовершенствование педагогов и формирование образовательной среды в процессе работы с учениками. Также подчеркивается важность современного понятия учителя.*

Abstract: *This article discusses in detail the main tasks of a teacher, the self-development of teachers and the formation of an educational environment in the process of working with students. It also highlights the importance of the modern concept of a teacher.*

Kalit so‘zlar: *pedagog, shaxs, tarbiya, vatanparvarlik, metod, muhit, zamonaviy o‘qituvchi, kadr, nutq, ta’lim.*

Ключевые слова: *педагог, личность, воспитание, патриотизм, метод, окружающая среда, современный учитель, персонал, речь, образование..*

Keywords: *pedagogue, personality, upbringing, patriotism, method, environment, modern teacher, personnel, speech, education..*

Yurtimiz kundan kunga rivojlanar ekan, yetuk kadrlarga bo‘lgan talab ham oshib bormoqda. Chunki yangi sohalar, yangi yo‘nalishlar va zamonaviy kasblar paydo bo‘lmoqda. Albatta, kadrlar orasidagi raqobat ham yangi tus olgan. Endilikda ishga kirish uchun faqatgina bir soha doirasida cheklanib qolish bilan kifoyalanmaslik kerak. O‘z ustida ishlash, o‘zini-o‘zi rivojlantirish muhim talablardan biridir. Bunday sog‘lom fikrli, o‘z ishining ko‘zini biladigan, malakali kadrlarni yetkazib berishda esa pedagoglarning ahamiyati katta. “Professor-o‘qituvchilarning eng muhim vazifasi – yosh avlodga puxta bilim berish, ularni jismoniy va ma’naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir.”³⁶ Shuningdek,

³⁶ Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning asarlari va ma’ruzalaridan olingan fikrlar). Nashrga tayyorlovchilar: O.Salimov, Q.Quronboyev, M.Bekmurodov, L.Tangriyev. – Toshkent: Yoshlar nashriyoti uyi. 2019, 122-b.

pedagoglarning o‘zi ham doimiy rivojlanishda bo‘lishi, bilim, malaka va ko‘nikmalarni jamlagan holda amaliy qo‘llay olishi kerak. Negaki malakali pedagoggina sifatli ta‘lim bilan ta‘minlay oladi.

“Pedagogika – bu aniq maqsadlar asosida maxsus ijtimoiy institutlar (oilalar, ta‘lim va madaniy tarbiyaviy muassasalar)da tashkil etilgan aniq yaxlit pedagogik jarayon sifatidagi ta‘limdir. Pedagogika bu holda o‘zini pedagogik jarayon (ta‘lim)ning mohiyati, qonuniyatlari, tendensiyalari va rivojlanish istiqbollari o‘rganuvchi fan sifatida namoyon etadi.”³⁷ Bo‘lajak o‘qituvchilarni ta‘limiy jarayonda tarbiyaviy metodlardan foydalangan holda yangicha dars uslubini tashkil etishga o‘rgatish asosiy masalalardan biridir. Nazariyaga asoslangan quruq bilim emas, amaliy hayotga tatbiq etoladigan, tarbiyaviy muhitni shakllantirib, yoshlar ongiga va qalbiga vatanparvarlik ruhini singidiroladigan zamonaviy o‘qituvchini bugungi kun talabi desak yangilashmagan bo‘lamiz. Shu sababli bo‘lajak o‘qituvchilarni va faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilarni oliy ta‘lim, malaka oshirish institutlarida o‘qitish jarayonida shaxs sifatida shakllanishga ko‘maklashish, amaliy yordam berish darkor.

“Shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekt va obyekt, ta‘lim sohasidagi xizmatlarning iste‘molchisi va ularni amalga oshiruvchidir.

Shaxs uzluksiz ta‘lim jarayonida dunyoviy, ilmiy bilimlarni o‘zlashtiradi, fan asoslarini puxta egallaydi, ishlab chiqarish sohalari bilan tanishadi, shuningdek, o‘zida ijtimoiy ta‘sir yordamida ma‘naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalab boradi. Shaxsda o‘zlashtirilgan bilim, faoliyat ko‘nikmalari va hayotiy tajriba asosida kasbiy mahorat ham shakllanib boradi. Yuksak ma‘naviy-axloqiy va yuqori darajadagi kasbiy malakaga ega bo‘lish uchun shaxs o‘z oldiga muayyan maqsadni qo‘ya olishi hamda unga erishish yo‘lida tinimsiz izlanishi, o‘qib-o‘rganishi lozim. Shundagina u ijtimoiy raqobatga chidamli, malakali kadr bo‘lib shakllanadi.”³⁸ Pedagoglar tomonidan dars jarayonida tarbiyaviy muhitni shakllantirishga e‘tibor qaratilgan ekan, bunda yosh avlodning ijtimoiy faolligini, vatanparvarligini va mas‘uliyatni o‘ziga olib olish qobiliyatini rivojlantirishga urg‘u beriladi. Bularning barchasi o‘qituvchilarning ma‘naviy dunyosini boyitish, nutq orqali ta‘sir qilish, nazariy bilimni hayotga tatbiq etish orqali amalga oshiriladi. Pedagoglarga bu jarayonda tarbiyaviy metodlardan foydalanish tavsiya etiladi. Jumladan, yuqori sinf o‘qituvchilari uchun “Davrlar stoli” metodi qo‘llash orqali ta‘lim oluvchining o‘z-o‘zini tahlil qilish, xulosalash, o‘zidagi mavjud imkoniyatlarni his qilish, shukronalik tuyg‘usini uyg‘otish mumkin. Bunda o‘qituvchilarga bir nechta savollarga javob berish talab etiladi. Masalan, “Men necha yoshdaman/nechanchi sinfman?”, “Mening orzuim?”, “Menda nimalar bor?”, “Men qanday holatdaman?”, “Menda

³⁷ Mavlonova A. va boshqalar. Umumiy pedagogika. – T.: “Fan va texnologiya”, 2018, 4-5-b.

³⁸ Hasanboyev J. To‘raqulov X. va boshqalar. Pedagogika. – Toshkent: “Noshir”, 2011, 8-9-b.

nimalar bo‘lishini istayman?“. Ushbu savollar doskaga yozib qo‘yiladi va o‘quvchilarga murojaat qilinadi. O‘quvchilar ayni damdan o‘n yil oldingi paytga qaytishi va shu savollarga javob berishi kerak. Demak, bitiruvchi sinf o‘quvchisi 1-sinf davrini eslaydi. Ko‘pincha 1-sinf davrida ularning orzusi a‘lo baho olish, velosipedli bo‘lish, o‘z telefoni bo‘lishi kabilarni tashkil qiladi. Keyin shu savollarga hozirgi 11-sinf sifatida javob berishadi. Orzular o‘zgargan, o‘quvchida endi shaxsiy telefon, kompyuter yoki velosiped bor. Endi u yangi narsalarni istaydi. Aynan shu savollarga shu o‘quvchi o‘n yildan keyingi o‘zi sifatida javob beradi. Bunda ko‘pchilik o‘zining mashinasi, ishi, oilasi, farzandlari borligini tasavvur qiladi. Oliy ta‘limga egalik diplomi borligini aytadi. Orzusi sifatida oilasiga yoki jamiyatga nimadir qilishi haqida gapiradi. Bu o‘quvchining shaxs sifatida o‘zini anglashga da‘vat etadi. Chunki o‘quvchi o‘tmish-bugun-kelajak tushunchalarini o‘z misolida solishtiradi. Uning mayda orzulari yoshi kattaygan sari jiddiylashadi. U kelajakda oila mas‘uliyatini, jamiyat va Vatan oldidagi mas‘uliyatini his qila boshlaydi. Bunda birorta o‘quvchi kelajakda yomon yo‘llarga kirish, nomaqbul ishlar qilish haqida gapirmaydi, chunki barchasi kelajagini yorqin ranglarda ko‘radi. Oddiy savollar ularning kelajakdagi rejalarini tiniqroq ko‘rishga, vizuallikka ko‘maklashadi. Bu esa o‘z-o‘zidan maqsadlarni yanada aniqlashtirishga yo‘l ochadi.

Zamonaviy metodlarning asosiy maqsadi faqat fanni o‘rgatish emas, uni nimaga o‘raganayotganini anglab yetishga xizmat qilishdir. Pedagog esa bu jarayonning boshqaruvchisi. U o‘rgatadi, tinglaydi, yo‘naltiradi va xulosalashga yordamlashadi. Aynan, shu muhit pedagogning ta‘lim va tarbiyani uzviy bog‘lay olishi sifatida talqin etiladi. Demak, har bir bo‘lajak o‘qituvchi yoki faoliyat yuritayotgan o‘qituvchi tarbiyaviy muhitni shakllantira olishi kerak. Bu uning pedagogik mahoratiga borib taqaladi. O‘qituvchi qancha mahoratli bo‘lsa, tashkiliy jarayon shunchalik jadal tusga kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning asarlari va ma‘ruzalaridan olingan fikrlar). Nashrga tayyorlovchilar: O.Salimov, Q.Quronboyev, M.Bekmurodov, L.Tangriyev. – Toshkent: Yoshlar nashriyoti uyi. 2019.
2. Hasanboyev J. To‘raqulov X. va boshqalar. Pedagogika. – Toshkent: “Noshir”, 2011.
3. Mavlonova A. va boshqalar. Umumiy pedagogika. – T.: “Fan va texnologiya”, 2018.